
Buvayda tumanida aliment majburiyatini bajarmagan 3 nafar masuliyatsiz otalarga nisbatan sud qarori o'qildi.

Majburiy ijro byurosi Buvayda tuman bo'limi ish yurituvda bo'lgan aliment undirish bilan bog'liq ijro hujjati bo'yicha uzoq muddatdan buyon aliment qarzdorligini to'lashdan bo'yin tovlab kelayotgan qarzdorlarga nisbatan to'plangan hujjatlar MJtKning 47-4-moddasiga asosan Jinoyat ishlari bo'yicha Buvayda tumani sudiga taqdim qilindi

Mazkur ma'muriy ish JIB Buvayda tuman sudida ko'rib chiqilib, qarzdorlar ya'ni Sh. Mexmonov 22,2 mln. so'm, M. Maxsudov 41,5 mln. so'm, R. Xoliknazarov 30,3 mln. miqdorida aliment pullarni to'lashdan bo'yin tovlab kelganligi sababli sud qarzdorlarning 2 nafariga 15 sutkalik ma'muriy qamoq jazosi tayinlandi, 1 nafariga esa yetkazilgan zararni to'liq to'laganligi sababli MJtKning 271-moddasi 10-bandiga asosan ish yuritishdan tugatildi.

2023-10-07 22:29:20